

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

## ASALARILARI-HAKIM DASTYORI, DEHQON HAMKORI, HOSIL-MADORI

Aslanova Xolida Gafurovna.

Termiz davlat pedagogika institute Biologiya fani o'qtuvchisi

Eshboyeva Surayyo Xolmurod qizi

Biologiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

**Email:** [xolida.aslanova@gmail.ru](mailto:xolida.aslanova@gmail.ru) Termez,Uzbekistan

**Annotatsiya:** *Ushbu oilada asalarilar oilasning morfo-fiziologiyasi va boshqa hashoratlar vakillaridan asosiy farqlari o'ziga xos noyob xususiyatlari, ularning tabiatda tarqalishi, o'simliklar va insonlar hayotidagi ahamiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Apis mellifera, trutenlar apidae, fasetka, bombus urug'i, mum, asalari suti, g'umbak, nektar, gul.*

**Аннотация:** *В этом семействе даны сведения о морфофизиологии пчелиного семейства и его основных отличиях от других насекомых, их уникальных особенностях, распространении в природе, их значении в жизни растений и человека.*

**Ключевые слова:** *Apis mellifera, трутни apidae, фасетка, бомбовое семя, воск, маточное молочко, гриб, нектар, цветок.*

**Annotation** *In this family, information is provided about the morphology of the bee family and its main differences from other insects, their unique features, their distribution in nature, and their importance in the life of plants and people.*

**Key words:** *Apis mellifera, drones apidae, facet, bombus seed, wax, royal jelly, mushroom, nectar, flower*

**Kirish.** Asalarilar oilasi (*Apis mellifera*)-jamo'a bo'lib yashovchi hasharot. Yer yuzida hozirgi malumotlarga ko'ra ularning bir oilasida 10000 dan 50000 gacha, bazan 100000 gacha ishchi, bitta ona (malikasi) va bir necha yuz erkak ari-trutenlar bo'ladi. Bu oila vakillarida faqatgina ona ari nasl beradi boshqa urg'ochi arilar nasl berishda qatnashmaydi. Ishchi arilar voyaga yetmagan urg'ochilar hisoblanadi. Boshining ikki yonida fasetkali ko'zlari joylashgan. Ishchi arilarning eng muhim xususiyati shundaki gulning hidi va rangini yaxshi ajrata oladi. Uning fasetkali ko'zlari sariq, ko'k va odam ko'zi ilg'amaydigan ultrabinafsha nurlarni yaxshi ajratadi, lekin qizil rangni sezmaydi. Ishchi arilarning yana bir xususiyati yuqori jag'lari kemiruvchi tipda tuzilgan bo'lib, mumdan kataklar yasaydi va changdonlardagi gul changini yalaydi. Pastki lab va pastki jag'lari suyuq nektarni so'rishga moslashgan.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Shunday aqilli hashoratki orqa oyoqlarning panja qismidagi savatchaga ishchi arilar gul changini yig‘adi. [1]

Asalarilari gulli o‘simliklarni changlatish bilan birga guldagi nektarlarni ham olib ketadi. Bitta ari jig‘ldoniga 30-40 mg nektar ketadi. Nektar jig‘ildonda va kataklarda ari so‘lagi fermentlar tasirida oddiy karbon suvlargacha parchalanib salga aylanadi. Asalari oilasi bir mavsumda 100-120 kg asal va 25-30 kg gul changini yig‘adi. Ishchi arilar 25-30 kun umr ko‘radi. Asalari changlatgan o‘simlik mo‘l hosil beradi. Chunki asalari changlatadigan o‘simliklar gullari chiroyli, har xil rangda bo‘lib xushbo‘y hid ham tarqatadi. Hashoratni o‘ziga jalb qiladi. [2] (1-rasm).



1-rasm. Asalarilar oilasi (*Apis mellifera*).

Asalarilar oilasida qat‘iy mehnat taqsimoti mavjud bo‘lib, erkak va ona arilar ko‘payish, ishchi arilar esa oilani boqish vazifasini bajaradi. G‘umbakdan chiqqan yosh ishchi arilar dastlabki kunlarda uyani tozalash, keyinroq ona va erkak arilari hamda qurtlarini boqish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bu davrda ularning maxsus bezlari “asalari suti” deb ataladigan suyuqlik ajratib chiqara boshlaydi. Bu suyuqlik bilan ishchi arilar ona arini boqishadi. Bir necha kundan so‘ng ular boshqa ishchi arilar keltirgan oziqni qabul qilish bilan shug‘ullana boshlaydi. O‘n sakkiz kunligida ishchi arilarning mum bezlari rivojlanadi. Bu davrda ular kataklar qurish bilan mashg‘ul. [3]

Asalari haqida qiziqarli faktlar

1. Asalari insonni birinchi marta chaqandan so‘ng halok bo‘luvchi yagona ari turi.

2. Asalarilar inson tomonidan iste‘mol qilinadigan mahsulot (asal) tayyorlovchi hashorat turi hisoblanadi.

3. Asalarilar qizil rangni ko‘ra olmaydi. Qizil rang ularga qora bo‘lib ko‘rinadi.

4. Faqat urg‘ochi asalarilargina chaqa oladi. Erkak asalarilarda nish bo‘lmaydi va u chaqa olmaydi.

## **“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”**

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

5. Urg‘ochi asalari ishlaydi. Erkaklari tekinox‘r ularning yagona vazufasi qirolichani urug‘lantirish.

6. Asalarilar onglilik darajasi bo‘yicha dunyoda barcha mavjudotlar ichida 2-o‘rinni turadi(1-o‘rinda inson)

7. Asaldan shamollashni davolashda ishlatiladi.

8. Asaldagi vitaminlar yurak faoliyatini yaxshilaydi, tomirlarni mustahkamlaydi va undagi xolesterin miqdorini kamaytiradi.

9. Eng asosiysi asal immuntetni ko‘taradi.

10. Asal oshqozon-ichak sistemasidagi viruslarni o‘ldiradi va yallig‘lanishni kamaytirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O. Mavlanov, SH. Xurammov, X. Eshova Umurtqasizlar zoologiyasi Toshkent 2006

2. S. Dadayev, Q. Saparov Umurtqasizlar zoologiyasidan Laboratoriya mashg‘uloti. Toshkent 2018

3. S. Dadayev, O. Mavlanov Zoologiya Toshkent 2008

4. Tursunaliyevna H. S., Nozima A. Effectiveness of using innovative technologies in teaching the morphology of bacteria //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 60-66.

5. Hayitov A. E., Aslanova X. G. USE OF STUDENTS' LOGICAL THINKING ELEMENTS IN TEACHING ZOOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 166-169

6. Musa buva o‘gli S. A. et al. STUDY OF THE INTRODUCTION AND BIOECOLOGY OF BANANA (MUSA) IN KHAZORASP DISTRICT OF KHORAZM REGION //Conference. – 2023. – T. 5. – №. 05. – C. 114-115.

7. Hickman C.P., Roberts L.S., Keen S.L, Larson A., Ianson H., Yeisenhou D.J. Zoology. 14 yedition. Mc. Graw-Hill. USA 2008.

8. Abdullaeva G. K., Tojiboyev S. J. ANALYSIS OF BIOMORPHS OF CYANOPKARYOTES AND ALGAE. – 2023.

9. Tursunaliyevna H. S. CREATIVITY IN EDUCATION AND STAGES OF ITS DEVELOPMENT. – 2023.

10. Haqberdiyeva S. T. Improving the Teaching Methods of Biology in General Secondary Schools on the Basis of A Competency-based Approach //Academia Globe. – 2022. – T. 3. – №. 03. – C. 132-136.